

ADABIYOT VA TILNING SHAXS PSIXOLOGIK MA'NAVIY RIVOJIGA TA'SIRI

Kazakova Barno Axmedjanovna

*Urganch Innovatsiyon Universiteti o'zbek va xorijiy
tillar kafedrası filologiya fakulteti o'zbek tili
2 bosqich talabasi*

Annotatsiya: Til va adabiyot shaxsning ichki dunyoqarashi, hissiy-ruhiy holati hamda ma'naviy qadriyatlari shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi. XXI asr sharoyitida madaniy-ma'rifiy omillarning psixologik barqarorlik va poklikni ta'minlashdagi ahamiyati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan adabiyot va til vositalarining shaxsning psixologik rivojiga ijobiy ta'sirini o'rganish ilmiy va amaliy kasb etadi. Ushbu maqolada yosh avlodni ma'naviy barkamol, sog'lom fikrlovchi shaxs etib tarbiyalashda til va adabiyot fanining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Til orqali ong va tafakkur shakllansa, adabiyot orqali yurak va ruhiyat tarbiyalanadi. Milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi va vatanparvarlik g'oyalari yoshlar qalbiga adabiyot orqali singdiriladi. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida til va adabiyotning tarbiyaviy imkoniyatlari ochib berilgan. Ushbu Maqolada adabiyot va til elementlarining shaxsning psixologik holati va ma'naviy potensialini oshirishdagi mexanizmlar ilgari suriladi.

Аннотация: Язык и литература играют важную роль в формировании внутреннего мировоззрения личности, её эмоционально-психологического состояния и духовных ценностей. В условиях XXI века возрастает значение культурно-просветительских факторов в обеспечении психологической устойчивости и нравственной чистоты. С этой точки зрения изучение положительного влияния языка и литературы на психологическое развитие личности приобретает научную и практическую значимость. В данной статье анализируется роль предметов «язык» и «литература» в воспитании духовно зрелой, здоровомыслящей молодёжи. Если язык формирует сознание и мышление, то литература воспитывает сердце и душу. Национальные ценности, наследие предков и идеи патриотизма передаются молодому поколению через литературу. В статье раскрываются воспитательные возможности языка и литературы на основе современных педагогических подходов. Предлагаются механизмы повышения психологического состояния и духовного потенциала личности через элементы языка и литературы.

Abstract: Language and literature play an important role in shaping a person's inner worldview, emotional-psychological state, and spiritual values. In the context of the 21st century, the importance of cultural and educational factors in ensuring psychological stability and moral purity is increasing. From this perspective, studying the positive impact of language and literature on an individual's psychological development holds both scientific and practical significance. This article analyzes the role of language and literature in educating a spiritually mature, rational-thinking younger generation. While

language shapes consciousness and thinking, literature nurtures the heart and soul. National values, ancestral heritage, and patriotic ideas are instilled in young minds through literature. The article reveals the educational potential of language and literature based on modern pedagogical approaches. Mechanisms for enhancing psychological well-being and spiritual potential through elements of language and literature are proposed.

Kalit so'zlar: *Til, adabiyot, psixologik rivoj, ma'naviy rivoj, hissiyot, ma'naviyat, badiiy terapiya. ma'naviyat, tarbiya, ona tili, adabiyot, shaxs, barkamollik, vatanparvarlik, estetik did.*

Ключевые слова: *Язык, литература, психологическое развитие, духовное развитие, эмоции, духовность, литературная терапия, воспитание, родной язык, личность, гармония, патриотизм, эстетический вкус.*

Keywords: *Language, literature, psychological development, spiritual development, emotions, spirituality, literary therapy, education, native language, personality, maturity, patriotism, aesthetic taste.*

Insoniyat jamiyatida adabiyot va til har doim markaziy o'rinda bo'lgan. XXI asr — tafakkur va texnologiyalar asridir. Bu davrda yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma'naviy boy, mustaqil fikrlaydigan inson sifatida tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirish, yoshlarni yot g'oyalardan asrashda til va adabiyot fanining o'rni beqiyosdir. Zero, ona tilini sevgan avlod — o'zligini anglagan, milliy qadriyatlarni qadrlagan shaxsdir.

Til- inson tafakkuri, dunyoqarashi va his-tuyg'ularning aksidir. Adabiyot esa, bu til orqali ifodalangan hayot tajribasi, ma'naviy boylik va axloqiy qobiliyatlarning badiiy ifodasidir. Adabiyot va til nafaqat bilim manbai, balki insonning psixologik va ma'naviy kamoloti uchun muhim tarbiyaviy vositasidir. Adabiyot insonning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Asar qahramonlari orqali yaxshilik va yomonlikning mohiyati, mehnat va vijdon, adolat va insofsizlik kabi tushunchalar ifodalanadi. Til – millat ruhi va ma'naviyati ko'zgusi

Ona tili — bu faqat aloqa vositasi emas, balki millatning ma'naviy xotirasi, madaniy merosi va fikrlash shaklidir. Til orqali shaxsda tafakkur, estetik dunyoqarash va ijtimoiy ong shakllanadi. O'quvchilarga tilshunoslik bilimlarini o'rgatish barobarida, ularni nutq madaniyatiga, an'anaviy odob-axloq me'yorlariga o'rgatish ma'naviy tarbiyaning asosiy yo'nalishidir.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ona tili — millat ruhi, uning boyligi va g'ururi. Uni asrab-avaylash, rivojlantirish har birimizning sharaflari burchimizdir" (Mirziyoyev, 2020).

Adabiyot – qalb tarbiyachisi

Adabiyot inson qalbini tarbiyalaydi, uni yaxshilikka, ezgulikka yetaklaydi. Badiiy asarlar orqali o'quvchilarda ijobiy xarakterlar, hayotga bo'lgan munosabat, estetik did va ma'naviy immunitet shakllanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon,

Oybek kabi adiblarning asarlari yoshlar qalbida milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otadi.

Adabiyot darslari orqali quyidagi tarbiyaviy maqsadlar amalga oshiriladi:

Vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantirish;

Estetik va badiiy didni rivojlantirish;

Milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani yuksaltirish;

Axloqiy normalarga hurmat bilan qarashni singdirish.

Jumladan, buyuk adiblarning asarlari – Alilsher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi yozuvchilarning ijodlari yosh avlodga axloqiy saboqlar beradi. Adabiyot orqali inson hayotda qanday yo'l tutishi, qanday fazilatlarni qadrlashi va rivojlantirishi kerakligini o'rganadi.

Til va psixologik rivojlanish.

Til inson psixologik rivojining asosi hisoblanadi. Til orqali inson atrof-muhitni anglaydi, o'z fikrini ifodalaydi va his-tuyg'ularini boshqaradi. To'ri talaffuz o'z ifodasini topgan bolalarda muloqot qobiliyati, empatiya, tahlil va tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Adabiyot esa psixologik tahlilni chuqurlashtiradi, inson ruhiyatining nozik qirralarini o'rganishda yordam beradi.

Psixologik jihatdan kuchli, so'z boyligi rivojlangan shaxslar ijtimoiy hayotda faolroq, muvaffaqiyatliroq bo'ladi.

Adabiyot va tilning ma'naviy rivojga ta'siri.

Adabiyot va til inson qalbini tarbiyalaydi, ma'naviy olamini boyitadi. Milliy adabiyot insonda o'zligini, tarixini, qadriyatlarini anglash tuyg'usini uyg'otadi. Til esa bu qadriyatlarni saqlash va keyingi avlodga yetkazish vositasidir.

Jumladan xalq ertaklari, maqollar, dostonlar ma'naviy tarbiyaning asosiy poydevorini tashkil etadi. Adabiyot orqali inson go'zallikni, ezgulikni, vatanparvarlikni, oila qadriyatlarini ahglaydi va qadrlaydi.

Psixologik rivojga ta'siri:

1. Tasavvur va tafakkurni rivojlantiradi. Yaxshi adabiyot o'qish insonni ichki va tashqi olamni tasavvur qilishga, voqealarni chuqurroq tahlil qilishga undaydi. Bu esa o'z navbatida fikrlash kengligini oshiradi.

2. Empatiya va his-tuyg'ularni boyitadi. Qahramonlarning ichki kechinmalarini o'qish orqali boshqalarning tuyg'ularini his qilishni o'rganadi, ruhiy sezgirligi ortadi.

3. Stressni kamaytiradi. Ayniqsa, badiiy asarlar o'qish ruhiy holatni tinchlantirib, stress va havotirni kamaytirishga yordam beradi.

4. Shahsiy identitetni mustahkamlaydi. Milliy qadriyatlarni muhim deb bilishni, o'z hayotida qanday yo'l tutishni tushunadi.

Madaniy rivojga ta'siri.

1. Qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni shakllantiradi. Badiiy asarlar ko'pincha yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm kabi mavzularni ko'taradi, bu esa shaxsiy ma'naviy mezonlarni shakllanishiga yordam beradi.

2. Madaniy ongni boyitadi. Til va adabiyot milliy madaniyatning eng asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, inson o'zining tarixiy ildizlarini, an'alarini anglaydi.

3. O'zlikni anglash va milliy g'ururni oshiradi. Til va adabiyot orqali shaxs o'z millatiga, urf-odatlariga hurmat va g'urur tuyg'usi bilan qaraydi.

Tilning o'zi shaxs rivojiga qanday ta'sir qiladi?

1. Nutq va fikrni ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Til o'z fikrini aniq, lo'nda yetkazish imkonini beradi, bu esa shaxsning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni oshiradi. Til orqali odamlar o'zaro aloqa o'rnatadilar, bu esa shaxsning ijtimoiy muvofiqlashuviga yordam beradi.

3. Ma'naviy tarbiyada muhim rol o'ynaydi. Sababi tilga bo'lgan munosabati, uni sevisish va asrash-shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini ham ifodalaydi.

4. Estetik didni shakllantiradi. She'riyat va badiiy nasr insonni go'zallikka bo'lan qarashini boyitadi, uning estetik sezgirligini oshiradi. Bu esa madaniyatli, nozik tabiatli inson sifatida shakllanishga xizmat qiladi.

5. Shaxsiy ong va tafakkurni shakllantiradi. Til va adabiyot orqali inson ona tilida o'ylash, his qilish va o'z fikrini ifoda etishni o'rganadi. Aynisa adabiyotlar obrazlar orqali hayotni chuqur anglashga yordam beradi.

Milliy o'zlikni anglashga yordam beradi.

O'zbek adabiyoti bilan muntazam tanishib borish orqali shaxsning so'z boyligi kehgayadi, ifoda uslubi boyiydi, nutqi ravonlashadi. Ayniqsa Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek kabi ijodkorlarning asarlari orqali inson o'z xalqining tarixini, madaniyatini, an'alarini chuqurroq anglaydi va milliy g'urur hissi shakllanadi. Bunday asarlarda ezgulik, halollik, sabr-toqat kabi qadriyatlar targ'ib qilinadi.

Jadid adabiyotining yirik vakili Abdurauf Fitrat bu borada muhim asarlar yozgan va o'z asarlari orqali til, adabiyot va ma'naviyatning inson shakllanishidagi o'rnini chuqur yoritgan. Uning qarashlari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Til-millat ruhi va tarbiyaning asosi. Fitrat tilni millatni uyg'otuvchi, uni birlashtiruvchi kuch sifatida ifodalaydi. U tilning nafaqat aloqa vositasi, balki tarbiya va tafakkur vositasi ekanini ta'kidlaydi. Insonning shaxsiy kamolotida ona tilidagi adabiyot mutolaasi alohida ahamiyat kasb etadi.

2. Fitrat o'zining dramatic asarlari, she'rlari va maqolalarida yosh avlodni ilmga, ma'rifatga vatanparvarlikka, yuksak axloqiy fazilatlarga undaydi.

3. Fitratning asarlarida til va adabiyot shunchaki ma'lumot yetkazish vositasi emas, balki inson shaxsiyatini shakllantiruvchi, uni komillikka yetaklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. U til orqali ongni, adabiyot orqali esa qalbni tarbiyalaydi.

Alisher Navoiy ham o'z asarlarida tilning nafaqat ifoda vositasi, balki inson ma'naviy kamolotining asosiy omili sifatida qaraydi. Navoiy tilni insonning ichki dunyosi, axloqiy fazilatlari va ruhiy holatini ifoda etuvchi asosiy vosita deb bilgan.

1. Uning asarlarida so'zga berilgan etibor, tilning go'zalligi va boyligi orqali shaxsiy kamolotga erishish mumkinligi ta'kidlanadi. Navoiy "Muhokamatul-lug'atayn" asarida turkey tilning

fasohati va lug'aviy boyligini dalillar bilan isbotlab, bu tilning adabiy va ma'naviy salohiyatini yuksak baholaydi.

2. Navoiy she'riyatida "shaxs" tushunchasi chuqur falsafiy va badiiy talqin etilgan. Uning g'azallarida shaxsiy kechinmalar, orzu-umidlar, ma'naviy izlanishlar til vositasida ifodalanadi. Bu orqali Navoiy insonning ichki dunyosini, ruhiy holatini ochib beradi va o'quvchini o'z-o'zini anglashga undaydi.

3. Navoiy asarlarida til shaxsni tarbiyalovchi, ma'naviy kamolotga xizmat qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa tilning shaxs rivojiga bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Navoiyning ijodi o'zbek adabiyoti va tilshunosligidagi beqiyos o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yangi pedagogik yondashuvlar va metodlar

Bugungi kunda til va adabiyot darslarida interfaol metodlar — klaster, aqliy hujum, insert, munozara, ijodiy yozuv ishlari orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga o'rgatilmoqda. Bunday yondashuvlar nafaqat bilim, balki ma'naviy tarbiyani ham ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda til va adabiyot fanlari muhim vositadir. Bu fanlar orqali o'quvchilarda milliy g'urur, ezgulik, odob-axloq, vatanparvarlik, estetik va intellektual salohiyat rivojlanadi. Shu bois, har bir pedagog bu fanni nafaqat o'qitish, balki tarbiya vositasi sifatida samarali qo'llay bilishi lozim.

Til va adabiyot shaxsning intellectual, axloqiy va estetik kamolotida beqiyos o'rin egallaydi. Til - fikrni ifoda etish, o'zini anglash va boshqalar bilan muloqotga kirishish vositasi sifatida shaxs ongining shakllanishiga xizmat qiladi. Adabiyot esa inson qalbiga yo'l topib, undagi tuyg'ularni tarbiyalaydi, axloqiy qadriyatlarni singdiradi va tafakkurni boyitadi. O'quvchi badiiy asar orqaliturli hayotiy holatlar, harakterlar va muammolar bilan tanishadi, bu esa uning hayotga bo'lgan qarashlarini kehgaytiradi. Shu bois, til va adabiyot ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishda asosiy vositalardan biridir. Shuning uchun bugungi kun pedagoglari o'quvchilarda asarlarni tahlil qilish orqali obraz tafakkurini rivojlantirishi, o'z fikrini yozma va og'zaki ifodalash malakasini shakllantirishi va adabiy estetik didni tarbiyalashga kata e'tibor qaratishi lozim. Bunda yoshga mos tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlarni tanlash, kitobxonlik muhitini yaratish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib electron adabiyotla, audio kitoblar orqali til va adabiyotga qiziqishni oshirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichida. – T.: O'zbekiston, 2020.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

3. Qodirova M. Til va adabiyot darslarida tarbiyaviy yondashuvlar. – T.: Fan, 2021.
4. Xolboyeva G'. Pedagogik mahorat va ma'naviy tarbiya. – T.: O'qituvchi, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: Adolat, 2020.
6. Adabiyot ta'limi metodikasi. Mas'ul muharrir: Shukurov H. – T.: Yangi asr avlodi, 2021.
7. Yoqubjon Ishoqov. "Navoiy Poetikasi" Toshkent O'zbekiston-"Fan " nashriyoti 1983 yil.
8. Rasulov Ravshanxo'ja. "Umumiy tilshunoslik". Toshkent 2009 yil.
9. Nodira Afoqova. "Jadid she'riyati poetikasi".Toshkent O'zbekiston "Fan " nashriyoti-2005 yil.
10. Xolboyeva G'. "Pedagogik mahorat va ma'naviy tarbiya". Toshkent O'zbekiston-2022 yil.
11. Karimova S. "Alisher Navoiy asarlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni" O'zbekiston ilmiy jurnali-2022 yil.
12. Saidov A, Rustamova D."Tilshunoslik va shaxs psixologiyasi" Toshkent "Fan " nashriyoti-2023 yil.